# IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARIDA LOGOPEDIK ISHLARNI TASHKIL ETISH VA REJALASHTIRISH



**Tuzuvchilar:** R.Shomaxmudova, p.f.n, professor
F.Muzaffarova, 37-sonli maxsus maktab logopedi va ilmiy mudiri
M.M.Shokirova, 105-sonli maxsus maktab-internatining logopedi

**Taqrizchilar:** L.R.Mo'minova TDPU defektologiya fakulteti, "Korreksion pedagogika" kafedrasi, p.f.d. prof.
U.Roziqova - 37-maxsus maktab logopedlari metod birlashmasi boshlig'i.
E.F.Zokirova - 105-sonli maxsus maktab-internati direktori va logopedi.

RTM Ilmiy metodik kengashiningning 24-maydagi 2-qarorida foydalanishga ruxsat etildi.

## Imkoniyati cheklangan bolalar maktablarida korreksion ishlarni tashkil etish va uning vazifalari

Imkoniyati cheklangan (aqli zaif) bolalar maktablarida logopedik ishning asosiy vazifasi aqli zaif o'quvchi shahsini hartomonlama rivojlantirish bilan birqatorda bu toifadagi bolalarni ijtimoiy tomondan orqada qolishlikka olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi turlixil nuqsonlarni tuzatish, yengillashtirish, kompensatsiya qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Nutqni o'z vaqtida to'g'ri egallash, bolaga atrofni o'rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z xulqini boshqarishga yordamlashadi, bola ruhiy faoliyatini rivojlanishiga ko'maklashadi va nihoyat, maktabda ta'lim tarbiya berish jarayonini yengillashtiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalar o'zlarining sog'lom, tengdoshlariga qaraganda birmuncha kech tilga kiradilar, birinchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan esa besh yoshgacha kechikadi. Eng, avvalo bu o'rinda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. 1-sinfga kelgan aqli zaif bolalarning 90 foizida talaffuz nuqsonlari uchraydi. Aksariyat bolalarda fonematik eshitish qobiliyati buzilgan bo'lib, nutq a'zolari va ularning harakatidagi nuqsonlar ham uchraydi. Lug'at boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi. Impressiv nutq ekspressiv nutq taraqqiyotidan ancha orqada qoladi. Mavhum xususiyatdagi, umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalovchi ko'pgina so'zlarni tushunmaydilar, ko'chma ma'noda qo'llanilgan tushunchalarni anglashda qiynaladilar, ularni aynan idrok etadilar.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning gap tuzishida ham qiyinchilik vujudga keladi. Tuzgan gaplari sodda, yig'iq bo'lib so'zlarning o'zaro moslashuvida ko'plab xatolar uchraydi, murakkab bog'lanishli gaplar juda kam qo'llaniladi. Aqli zaif o'quvchilar birnarsani ikkinchisiga qiyoslashga, xodisalarning sababli bog'lanishlarini ochib berishga qiynaladilar, buning ustiga voqea xodisalarni yetarli, aniq anglamaslik aqli zaif o'quvchilarning fikri butunlay noaniq tugallanmagan bo'lib qolishiga olib keladi. Gap mazmunini tushunmaslik imkoniyati cheklangan o'quvchilar nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bolalar o'qiyotgan, eshitayotgan va

ko'rayotgan narsalarni to'la tushunib yetmasligi ularning so'zlashuv nutqida bir qator xatolarga olib keladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar nutqidagi barcha nuqsonlar, ularni o'qitish jarayonida qiyinchilik tug'diradi, hamma vaqt ham o'qituvchining tushuntirishlarini faxmlashavermaydi, o'qituvchining tushuntirishlarini to'g'ri tushunib yetmaydi.

Lekin ilg'or o'qituvchi-defektologlarning tajribalar ish uni ko'rsatdiki, ta'limning maxsus tashkil etilgan jarayoni yordamida aqli zaif o'quvchilarning nutq faoliyatini tuzatish, ya'ni korreksiya qilish, umumiy shaxs rivojlanishida rolini oshirish mumkin.

O'quv yilining dastlabki 2 haftasi o'qishga yangi kelgan o'quvchilar nutqini aniqlashga, tekshirishga qaratiladi. Bunda logoped o'quvchining og'zaki va yozma nutqi 2 bosqichda tekshiradi:.

**1-bosqichda** sinfdagi o'quvchilar nutqi yalpi holatda tekshiriladi hamda o'quvchilar orasidannutq nuqsonli bolalar aniqlanadi;

**2-bosqichda** ro'yhatga olingan nutq nuqsonli o'quvchi logopedik yordam xonasi sharoitida yakka tartibda chuqurroq aniqlanadi va tashxis qo'yiladi.

Logopedik mashg'ulotlar 16-sentabrdan 20-mayga qadar muntazam olib boriladi.

15-sentabrgacha logoped o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq holatini tekshirishni nihoyasiga yetkazadi, logopatlarni guruhlarga jamlaydi, yakka mashg'ulotlar uchun o'quvchilarni aniqlaydi hamda har bir guruh uchun alohida bir yillik reja tuzadi. Yakka mashg'ulotlar rejasi asosan logopatning nutq kartasida aksettiriladi.

Mashg'ulotlarjadvalinituzishdashunihisobgaolishkerakki, guruhlimashg'ulotlargabirinchisinfda 30-35 daqiqa, 2-6-sinflarda 35-40 daqiqa, yakka mashg'ulotlarga 15-20 daqiqa vaqt ajratiladi.

Har bir logopat bilan haftasiga 2-3 martadan mashg'ulot o'tkazish muhimdir.

O'quv rejada 1-5 sinflarda logopediya mashg'ulotlariga 5 soat ajratilgan. Shundan 4 soat og'zaki nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan 1 soat o'qish va yozishdagi nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan o'tiladi. Shu jumladan 6-sinflardalogopediya mashg'ulotlariga 3 soat ajratilgan. Shundan 2 soat og'zaki nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan 1 soat o'qish va yozishdagi nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan o'tish tavsiya etiladi.

## Nutq buzilishining umumiy tavsifi. Nutq jarayonini logopedik tekshirishni tashkil etish

Birinchi sinfi mkoniyati cheklangan o'quvchilarining nutqini tekshirish dars jarayonida o'quvchilarni o'rganishdan boshlanadi. Bunday frontal (yalpi) tekshirish logoped uchun vaqt tejashgina bo'lib qolmasdan, u o'quvchilar nutq faoliyatining tabiiy holatini kuzatish imkonini beradi, o'quvchilar javobi, ularning og'zaki nutq holatini yaqqo lifodalab beradi. Shu bilan bir qatorda logoped bu davrda o'quvchilarning shaxsiy hususiyatlari: ishqobiliyatlari, diqqat, xotira, aqliy darajalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Frontal tekshirish har xil shaklda, shuningdek, integratsiya tarzida ham o'tkazilishi mumkin. Bunda logoped o'qituvchining ishjarayonida o'quvchilar javobini kuzatadi, so'ng o'znavbatida logoped o'zi tavsiya etgan mazmunli rasm asosida savol javob o'tkazadi, hikoya tuzib gapirishni so'raydi.

Yana shuni hisobga olish lozimki, nutq tekshirish jarayoni ta'limiy xususiyatga ega bo'lishi lozim. Rasm asosida so'zlab berish jarayonida so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga bolalar diqqati qaratiladi. O'quvchilarni so'zlatish davomida o'quvchi nutqining lug'at boyligi, so'zlarni ma'nosini tushuna bilib umumlashtiruvchi so'zlardan foydalana olishi, grammatik tomondan to'g'ri shakllanganligi va hokazo tomonlari har tomonlama o'rganiladi.

O'quvchining talaffuz holatini tekshirish jarayonida, har bir sahifasiga ma'lum tovush turli o'rinlarda (boshida, o'rtasida, ohirida) kelgan rasmlar joylashtirilgan tovushlar talaffuzini aniqlash albomidan foydalaniladi.

Tovushni analiz qilish malakasini tekshirishda o'quvchilar unli, undosh tovushlarni yakkaholda, bo'g'in, so'z, gaplarda farqlay olishlari, so'zda tovushlar soni, ketma-ketligini bilaolish jarayoni aniqlanadi.

Bola nutqining grammatik tuzilish tomoni tekshirilayotganda kelishik, shaxs-son qo'shimchalarini qayxolatda qo'llayotgani, gapda sifat va otlar, olmosh va fe'llarni o'zaro bog'lanishlari aniqlanadi, bog'lovchilar, yordamchi so'zlarni qo'llay olish malakalari o'rganiladi.

O'quvchining fonematik eshitish qobiliyatini tekshirishda, dastlab fonetik tomondan bir-biridan farq qiladigan tovush va bo'g'inlarni bola

tomondan qaytarish buyuriladi. Bunda logoped artikulyasiya holatini bolaga ko'rsatmay turib tovushlarni talaffuz qiladi. v-z, l-n, n-t, r-d, va-za, ma-xavaboshqalar. So'ngra fonetik tomondan bir-biriga o'xshash tovush va bo'g'inlarni farqlash, logoped ketidan qaytarish buyuriladi: g-k, f-v, t-d, ga-ka, cha-sha, za-sa, ma-ravahokazo.

Tekshirishning keyingi ishjarayonida o'quvchining birtovush bilan farq qiladigan so'zlarni ajratish va shu so'zlarga mos rasmlarni topish va ko'rsatish ko'nikmasi aniqlanadi.

| | | |
|---|---|---|
| gul-kul | sina-zina | til-dil |
| sim-shim | oz-och | mosh-tosh |
| kuz-tuz | bahor-nahor | Soli-sholi va hokazo. |

Bir vaqtda quyidagi vazifalar beriladi:

- stol, kiyim, qish kabi so'zlardagi oxirgi undosh tovushni topish;
- lola, ruchka, ona kabi so'zlardagi oxirgi unli tovushni topish;
- aytilgan tovush bilan boshlanuvchi rasmlarni ajratish;
- belgilangan tovushga oid so'zlarni eshitganda shartli belgilarni ko'rsatish va hokazo.

Nutqning lug'at tomondan boyligini tekshirish uchun maxsus usullar qo'llaniladi: predmetlarni nomi, rasmga ko'ra predmetni nomlash, umumlashtiruvchi so'zlarni topish yoki predmetli rasmlarni umumlashtirish; ko'rsatilgan predmet, rasm bo'yicha ishharakatini nomlash.

Nutqning grammatik tomonini tekshirishda quyidagi vazifalarni bajarish taklif etiladi, mazmunli rasmlar bo'yicha hikoya tuzish; birlikdagi otlarni ko'plikdagi otlarga aylantirish (bunda predmet rasmlardan foydalaniladi qalam-qalamlar, o'quvchi-o'quvchilar, g'oz-g'ozlar).

## Yozma nutqni tekshirish

Imkoniyati cheklangan (aqli zaif) bolalar yozma nutqidagi nuqsonlarni aniqlash uchun 2-4 sinf o'quvchilarining yozma ishlari, diktantlari ko'rib chiqiladi. So'ngra sinf o'quvchilari bilimiga DTT talablariga mos keladigan diktantlar yozdiriladi. Yozma ishlar tahlilidan so'ng, yozma ish natijalari nutq kartasiga belgilanadi, ulardan logopedik guruhlar jamlanib, yillik joriy reja tuziladi.

Qanday xatolar disgrafik xatolar hisoblanadi? Bular quyidagilardir:

1. Fonetik – fonematik xususiyatli xatolar, talaffuz (artikulyasiya) va idrok (akustika) jihatidan o'xshash tovushlarni bir-biri bilan almashtirib yuborish;

2. So'z tuzilishidagi kamchiliklar (bo'g'inlar o'rnini almashtirish, unlilarni tushirib qoldirib ketish, bo'g'in, so'zlarni oxirigacha yozmaslik, ortiqcha keraksiz unli yoki undosh harflarni qo'shib yozish);

3. Bir so'zni ikkiga bo'lib yoki ikkita so'zni qo'shib yozish;

4. Shakli va yozilishi o'xshash bo'lgan harflarni, ularning belgilarini almashtirib yozish;

5. Qo'l muskullarining nozik harakatchanligi, motorikasi buzilishi natijasida harflarni noto'g'ri yozish, daftardagi chiziqlarga rioya qilmaslik, harf, bo'g'in va so'zlarni ustma-ust yozish;

6. Grammatik xatolar;

7. Oynavon xat (xatni oynada aks etgandek teskari yozish);

Amaliyotda fonetik-fonematik turdagi disgrafiya ko'plab kuzatiladi.

Joriy reja 1 yilga mo'ljallab tuziladi. Unda har bir logopedik guruh yozma nutq kamchiliklariga ko'ra, uni bartaraf etish rejalarida aks ettirilishi kerak. Albatta, aqli zaif o'quvchi bilish faoliyatini tuzatish inobatga olinishi, shuningdek, o'quvchining fazoviy idrokini, xotirasi, diqqati, analiz vas intez qilish faoliyati, nutqini tahlil qilish, lug'at ustida ishlash, grammatik bilimni rivojlantirish, og'zaki nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish, nozik qo'l harakatlarini rivojlantirish, ayniqsa, muhimdir.

Yozuvdagi kamchiliklar ko'p hollarda o'qishdagi kamchiliklar bilan birga kuzatiladi.

Disleksiyaning belgilari:

- harflarni esda saqlayolmaslik, ularni bir-biri bilan almashtirib o'qish, harflarni bo'g'inlarga biriktira olmaslik;
- harf va bo'g'inlarni qayta-qayta takrorlash, tushirib ketish, o'rnini almashtirish natijasida ma'nosini tushunmay, noto'g'ri, sekin o'qish;
- so'z qismlarini, bo'g'inlarni, qo'shimchalarni boshqa harf, bo'g'in yoki so'zlar bilan almashtirish;
- tinish belgilari, pauzalarga rioya qilmaslik va hokazo.

O'qish jarayoni tekshirilayotganda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- o'qish texnikasi;
- o'qish tezligi;
- o'qishdagi xatolar;
- matn ma'nosini tushunib yetishligi;
- o'qilgan matnni gapirib bera olishi (mustaqil, savol javob yordamida, logoped yordamida).

Shunday qilib, tekshirish natijalari logopedik xulosalar bilan yakunalanadi. Logopedik xulosalar asosida bola bilan olibborilishi kerak bo'lgan reja tuziladi. Aqli zaif o'quvchi nutq nuqsonini tuzatish serqirra hamda uzoq vaqtni talab qiladi, har bir o'quvchi shaxsi, nutqnuqsoni o'zigaxos xususiyatga ega bo'ladi. Mana shuxususiyatni hisobga olib tuzilgan reja ta'lim jarayonida to'ldiriladi, kengaytiriladi, kerak bo'lsa o'zgartirilishi ham mumkin.

## Logopedning 1-sinf o'quvchilari bilan olib boradigan ishlari

Tovushlar talaffuzini tuzatishga qaratilgan mashg'ulotlar uchun kompleks ish reja: O'qituvchi kabi logopeddan ham kundalik dars-mashg'ulotni rejalashtirish talab qilinadi. Agar 1 soatlik (40min) darsga o'qituvchi 1 ta reja tuzsa, logoped 3 ta yakka mashg'ulot olib borayotgan o'quvchi uchun 3 ta reja tuzishi kerak. Logoped guruhli mashg'ulotlarni haftasiga 1 marta, yakka mashg'ulotlarni 4 marta o'tkazish tavsiya etiladi.

Logopedlar ishini birmuncha yengillashtirish maqsadida quyidagicha ish yuritish tavsiya etiladi hamda u quyidagicha afzalliklarga ega:

- nutqning barcha komponentini rivojlantirishni nazarda tutadi;
- bunday rejalashtirish orqali faqat nutq o'stirish emas, balki aqliy, fikrlash qobiliyati ham takomillashadi;
- bunday ish reja faqat birgina tovush o'stirishga qaratilmay, balki qator fonemadosh tovushlar korrektsiyasiga ham talluqlidir (t-d, s-z, k-g va xokazo).
- bunday rejalashtirishdan faqat yakka mashg'ulotlarda emas, balki guruhli mashg'ulotlarda ham foydalanish mumkin.

Tovushlarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish bo'yicha ish jarayoni uch bosqichda olib borilar ekan, har bir bosqichda muayan vazifalar amalga oshiriladi. Chunonchi,

1-bosqich – tovushning to‘g‘ri talaffuzini hosil qilish. Amaliyotda ko‘pgina aralash uslublar foydalaniladi. Kamida 5 - 6 mashg‘ulot o‘tkazish zarur bo‘ladi.

2-bosqich – to‘g‘ri talaffuz hosil qilingan tovushni mustahkamlash. Bu ish uzoq vaqtni talab qiladi, chunki bu davrda noto‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalari to‘xtalishi, yangi malakalar shakllantirilishi kerak. Sog‘lom bolalarda bu davr 6 oy davom etsa, aqli zaif bolalarga kamida 12 oy zarur bo‘ladi. Chunki markaziy asab sistemasining organik buzilishi shartli bog‘lanishlarni kech shakllanishi, har bir yangi ko‘nikmaning qiyinchilik bilan yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

3 bosqich – nutqqa yangi kiritilgan to‘g‘ri talaffuzli nutq tovushini o‘ziga o‘xshash yoki o‘xshamaydigan aralashtovushlardan farqlash. Bu davr muddati, avvalo, nutq a’zolarining to‘g‘ri harakatlanish malakalariga va fonetik idrokka bog‘liqdir.

Quyida bir hil nutq nuqsonli guruhlar uchun kompleks reja tavsiya etiladi.

***1-bosqichda*** mashg‘ulotlar asosan yakka holda olib boriladi, chunki tovushning to‘g‘ri talaffuzini hosil qilish turli xil usullar yordamida amalga oshiriladi.

***2- bosqich*** asosan 2-3 kishidan iborat guruhlarda.

***3- bosqich*** esa 2- 4-6 kishidan iborat guruhlarda olib boriladi.

**1-bosqichda** tovush talaffuzini shakllantirish bo‘yicha olib boriladigan korreksion ish mazmuni:

1.a) Tovush buzilishlari ko‘pincha nafas olishdagi kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun to‘g‘ri nafas olish va ovoz mashqlari ustida ish olib boriladi;

b) artikulyasion apparat harakatchanligini o‘stirish. Alohida tovushlarni hosil qilishga oid hamda umumiy artikulyasion mashqlar bajartirish.

2. Fonematik eshitish idroki va tasavvurini shakllantirish asosida eshituv diqqatini rivojlantirish. Bunda tovushlar qatoridan bo‘g‘in, so‘zdan aytilgan tovushni topish, belgilangan tovushni so‘zda kelish o‘rnini belgilash (boshida, o‘rtasida, oxirida), so‘zda tovushlar ketma-ketligini aniqlash va boshqalar. Bu o‘rinda turli o‘yinlardan foydalanish lozim. Masalan: bolaga postanovka qilingan tovushni tovushlar qatoridan, so‘ng bo‘g‘inlar, so‘zlar, gaplar tarkibida topish buyuriladi. Bunda bola qo‘lini yo qo‘lidagi kartochkani yoki birorta

bayroq yoki predmetni o'z vaqtida ko'tarish bilan javob qaytaradi. O'quvchiga so'ngra rasmlar ko'rsatilib ularda belgilangan tovush o'rnini aniqlash vazifasi beriladi va xokazo. Ish jarayonida soddadan murakkabga tamoyiliga amal qilish muhimdir.

3. Lug'at boyligini o'stirishda "Oila", "O'quv qurollari", "Idish tovoqlar", "Kiyimlar", "Uy va yovvoyi hayvonlar" kabi mavzudagi suhbatlar o'tkazish va bunda albatta, belgilangan tovushlar ko'p qatnashgan so'zlardan foydalanish tavsiya etiladi.

4. Nutqning grammatik tomondan shakllantirish jarayonida gaplar ustida turli xil ishlarni rejalashtirish lozim (savollar yordamida yoyiq gaplar tuzish, shakli buzilgan matnlarni to'ldirish, berilgan so'z, rasmlardan gaplar tuzish va xokazo). Shartli belgilarni qo'llash tavsiya etiladi.

5. Aqliy qobiliyatni o'stirish maqsadida diqqatni o'stiruvchi, xotira ko'lamini kengaytiruvchi, tafakkur qobiliyatini rivojlantiruvchi o'yin va mashqlar kiritiladi.

Logopedik mashg'ulotlarda texnik vositalardan foydalanish ish samaradorligini kuchaytiradi, ish jarayonida kompyuterdan foydalanish, o'yinli kompyuter programmalarini qo'llash yangi pedagogik texnologiya talablarini maxsus ta'lim mazmuniga kiritish bo'yicha samarali ish uslubi hisoblanadi. Umum ta'limda qo'llanilayotgan baholashning reyting tizimi elementlaridan o'yin sifatida unumli foydalanish o'quvchilarni rag'batlantirishning bir shakli sifatida qo'llash mumkin. Bu logopedning ijodkorligiga, o'z ustida ishlashga bog'liqdir.

## Tovush talaffuzini to‘grilash bo‘yicha taxminiy konspekt reja:

**Mavzu:** “Sh” tovush postanovkasi (to‘g’ri talaffuzni tarbiyalash)
**Maqsad:** nutq a’zolari harakatchanligini, fonematik idrokni shakllantirish, tovushning to‘g’ri talaffuzini mustahkamlash, lug’at boyligini o‘stirish, aqliy qobilyatini o‘stirish.
**Jihozlash:** alohida oynacha, zond, spirt, paxta, shag’am rasmlar.

**I. Tashkiliy qism. Ishni mashg’ulot maqsadiga yo‘naltirish**
Nafas mashqlari.
1. “To‘pni darvozaga kiritish” Choziq, to‘g’ri yo‘naltirilgan havo oqimini hosil qilish.
2. ”Kim to‘pni uzoqqa uloqtiradi?” til orasidan o‘tuvchi tekis, uzluksiz havo oqimini hosil qilish. Tabassum holatida tilning oldingi keng qismini pastki lablar ustiga chiqarib F tovushini uzoq chozib talaffuz etib, stol ustidagi paxtani qarama qarshi tomonga puflash.
3. “Tish tozalash” Til uchini yuqori tishlar orqasida tutib turishni o‘rgatish. Tabassum holatida tishlarini korsatib, og’iz biroz ochiladi, til uchi avval qarama qarshi tomonga, so‘ng pastdan yuqoriga harakatlantiriladi.
4. “Fokus” havo oqimini til o‘rtasidan yo‘naltirishni o‘rgatish. Og’iz biroz ochilib til “tog’oracha” shaklida oldinga suriladi va biroz ko‘tarilib burun uchidagi paxtani bir me’yorida ohista puflash - nafas chiqarish.

**II. Artikulatsion mashqlar:**
a) Lab uchun - tabassum, naycha, tishlarni ichki tomonidan tozalash.
b) Til uchun - “arg’imchoq”, “piyola”, “bo‘yoqchi”, “shirin murabbo”.

**III. “Sh” tovushini to‘g’ri artikulasiyasini ko‘rsatish.**
Sh tovushini talaffuz etishga o‘rgatish. Buning uchun bu tovush talaffuzidagi nutq organlari qay holda bo‘lishini bilish zarur: Lab, til.
a) Sh tovushi talaffuzida lablar aylana shaklida oldinga biroz chiqqan.
b) Tishlar bir-biriga yaqinlashgan.

c) Tilning keng uchi qattiq tanglayning oldingi qirasiga ko‘tarilgan bo‘lib, ular oralig’ida tirqish hosil bo‘ladi.
g) Yumshoq tanglay ko‘tarilgan va burun yo‘llarini yopib qo‘yadi.
h) Un paychalari ochiq, tovush jaranglamaydi.

**IV. Fonematik idrokni rivojlantirish.**
a) Bir qator tovushlar ichidan Sh tovushini aniqlash. m, n, sh, t, k, r, sh, b.
b) So‘zlarda Sh tovushini aniqlash. Bir qator so‘zlar aytiladi, bola aytgan so‘zlardan Sh tovushini esitsa qo‘lini yoki bayroqchani ko‘taradi:
Somsa, tosh, sabzi, shim, sholg’om, osh, shahar.

**V. Jismoniy daqiqa.**
She’r asosida mayda qo‘l matorikasini rivojlantiruvchi mashqlar.

Qushlar shohda sayraydi.
Uchib, yo‘nib yayraydi.
Shamol esadi g’ir-g’ir.
Yaproqlari shildir-shildir.



**VI. Daftar bilan ishlash.** “Sh” harfini daftarga yozish.
**VII.** Stol ustiga qo‘yilgan rasmlar ichida Sh tovush ishtirok etganlarini tanlab olish. Rasmlarni nomlash: quyon, sigir, shatoli





**VIII. O‘yin “To‘rtinchisi ortiqcha”**
Varaqadagi rasmlarni diqqat bilan kuzatib, ularni nomlab, shu rasmlarni uchtasida bitta tovush takrorlanadi. Bittasida esa qolgan

uchta rasmda ishtirok etgan tovush yo'q, bu qaysi rasm ekanligini aniqlash.

| | | | |
|---|---|---|---|
|  |  |  |  |
| Mosh | Shim | Asal | Sher |

**IX. Masg'ulotni yakunlsh.**
Uyga vazifa: nafas mashqlari va til mashqlarini bajarish.
O'quvchini baholash va rag'batlantirish.

**Tovushni avtomatizatsiya qilish bosqichi uchun tahminiy konspekt reja:**

**Mavzu:** "S" tovushini nutqda mustahkamlash.
**Maqsad:** "S"tovushini to'g'ri talaffuzqilish bo'g'in, so'z va gaplarda mustahkamlash, tovush tomonidan tahlil qilish malakalarini shakllantirish.

**Korreksion maqsad:** Artikulatsion nutq apparatining harakatchanligi oshirish, fonematik idrokni rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish.
**Jihoz:** Oyna, pufak, predmetli, mazmunli rasmlar, kesma harflar, geokontor.

**Mashg'ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:**
Salomlashish, fasl, oy, sanani aniqlsh.
- hozir qaysi fasl?
- qish fasliga qaysi oylar kiradi?
- tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

**II. Artikulatsion mashqlarini bajarish.**

**Lab mashqlari:**

- lablarni kulgu holatiga keltirish va cho‘chchaytirish.

**Til mashqlarini bajarish:**

- “soatcha” mashq
- “bo‘yoqcha” mashq
- “futbol” mashq
- “mazali murobbo” mashq

**Nafas mashqlarini bajarish:**

- mashinani puflab yurgizish
- pufak puflash
- qor parchalarini uchirish
- kaftlarni isitish.

**III “S” tovushini talaffuz qilish.**

“S” tovushining artikulyasiya o‘rnini aniqlash.

-Biz “S” tovushini talaffuz qilganimizda lablarimiz va tilimiz qanday holatda bo‘ladi?

Artikulatsiya apparatining holati rasm yardamida ko‘rsatiladi va tushuntiriladi.

Lablar kulgu holatida, tishlar bir-biriga tegar tegmas, tilimizning uchi pastki tishlarimizning orqasiga tiraladi va puflab og’zimizdan havo chiqaramiz. Tilimizning o‘rtasida ariqcha paydo bo‘lib “S” tovushi hosil bo‘ladi.

S-S-S tovushni talaffuz qilish.

Og‘zimiz oldiga qo‘limizni qo‘yib “S” tovushini talaffuz qilamiz.

Qo‘limizga shamol tegadi.

Bolaga S tovush artikulatsiyasini profelda va oyna orqali o‘z artikulatsiyasida talaffuz qilib ko‘rsatadi.



**IV. "S" tovushi ishtirokida ochiq va yopiq bo'g'inlar hosil qilish.**

a a
o o
i S i
u u
o' o'
e e

"S" tovushi ishtirok etgan bo'g'inlarni bir necha bor aniq va to'g'ri talaffuz qilish.

SA-SA-SA SU-SU-SU
SO-SO-SO SI-SI-SI

**V. Fonematik idrokni tekshirish.**

"S" tovushini hamda "S" tovushli bo'g'inni eshitganda chapak chalish kerak.

K T S L M S R D S
TA-SA-KA-SU
RA-SO-LA-SI

**VI. Bo'g'inlardan so'z hosil qilish.**

SA-SA-SA-SavatOS-OS-OS-Osmon
SO-SO-SO-SoyaAS-AS-AS-Asal

**VII. "S" tovushi ishtirok etgan narsalarni ajratib olish va savatga joylashtirish.Ularni to'g'ri nomalash.**

"Sanjar samalyotda Samarqandga uchadi" o'yini orqali "S" tovushli so'zlarni to'gri talaffuz qilishga o'rgatish.O'yin shartiga ko'ra bir qancha narsalar aralashtirib stol ustiga qo'yiladi.Ulardan faqatgina "S" tovushi ishtirok etgan narsalarni ajratib olib savatga joylanadi.
Sochiq,sovun,somsa,kosa,sut,soat,yostiq.

**VIII. "S" tovushi so'zning boshida,o'rtasida,oxirida kelganligini aniqlash.**

"Sichqonga yordam" o'yini orqali "S" tovuchi so'zning qayerida kelganligini aniqlash.O'yin sharti:
Sichqon uyiga ketayotganida yo'lida uchragan narsalarni nomlab va "S" tovushi so'zning qayerida kelganligini aniqlashi kerak bo'ladi.Shundagina u uyiga to'g'ri yo'l orqali keladi.

**IX. Jismoniy daqiqa.**
Stulchamni bir ko'ring.
Orom oling o'tiring.

**X. Kesma harflar yordamida "SABZI" so'zini yozish va shartli belgilar yordamida tahlil qilish.**
**SABZI**



**XI. Mazmunli rasmlar ustida ishlash.**
Savollar yordamida gap tuzish.
- Ona nima qilyapti?
- Ona sigir sog'yapti.
- Sigir nima beradi?
- Sigir sut beradi.
- Patnisda nimalar bor?
- Patnisda sochiq,sovun,kosa,sigir,savat bor.

**XII. Yo'qolgan narsani top o'yini.**
O'quvchi ko'zini yumim turadi.Qatordagi biror narsa berkitiladi.Nima ekanligini o'quvchi aniqlashi kerak bo'ladi.

**XIII. O'quvchini rag'batlantirish. Mashg'ulotni yakunlash.**

***Mavzu:*** **"R" tovush talaffuzini mustahkamlash.**

***Korreksion maqsad:*** "R" tovushini to'g'ri talaffuziga o'rgatish, nutq apparatini harakatini rivojlantirish, eshitish diqqatini fonetik eshituvini rivojlantirish, bo'g'inlarda birinchi undosh tovushni ajratish so'z boshida, so'z o'rtasida, so'z oxirida "R" tovushini eshitishga o'rgatish.
***Jihozlar:*** "R" tovushini artikulasiyasi sxemasi, oyna, peramidaning rasmi, magnitafon,
"Bo'g'irsoq" ertak qahramonlarining rasmlari, shartli belgilar, kesma harflar.

I. Tashkiliy qism.
Salomlashish, fasl, oy, sanani aniqlsh.
-hozir qaysi fasl?
-qish fasliga qaysi oylar kiradi?
-tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

II. Bugun men senga "Bo'g'irsoq" haqida ertak aytib beraman. Biz sen bilan mashg'ulotimizni bo'g'irsoq ertagi asosida o'tkazamiz.
Qadim zamonda bir chol bilan kampir bo'lgan ekan.
Bir kuni chol kampirga:
- Kampir, bo'g'irsoq pishirgin,- debdi.
- Nimadan pishiray un yo'q-ku?- debdi kampir.
- E, kampir, suprani qoqib-sidirgin, bo'g'irsoqqa yetadigan un yig'ilib qolar- debdi chol.

Kampir suprani sidirib bo'g'irsoq pishiribdi. Bo'g'irsoqni deraza tokchasiga qo'yibdi. Bo'g'irsoq tokchada yotaverib zerkibdi. Bo'g'irsoq bugungi mashg'ulotimizga mehmanga keldi.



Bo'g'irsoq tabassum qilishni, tilini chiqarishni bilar ekan lekin bo'g'irsoq nafas mashqlarini va R tovushini to'g'ri talaffuz etishni bilmas ekan. Kel biz sen bilan til mashiqlari, nafas mashiqlari hamda R tovushini to'g'ri talaffuzini bo'g'irsoqga ko'rsatib beramiz.

***Nafas mashqlari***:
1. Havo purkagich kabi puflash.
2. Gulni hidlagandek nafas olamiz.

3. Yonib turgan shamni bitta katta va ikkita kichkina nafas olish bilan o'chiramiz.

***Artikulatsion mashqlar:***

1. Belkurak. 2. Arg'imchoq. 3. Mazzali murabbo. 4. Ot

R tovushining talaffuzi.




- Avtobus motori yurgizilganda qanday tovush chiqadi?
- R-R-R
- R tovushini talaffuz etayotganimizda
- Tilimizni tepa tanlayimizga ko'taramiz.
- Havo oqimi ikki yondan chiqadi.
- Tilimiz to'sqinlik qiladi va dirillaydi.

**3.** Shunday qilib bo'g'irsoq tokchada yotaverib zerkibdi. Bir yumalab so'riga, undan maysa ustiga tushibdi-yu keyin yo'lakchadan o'tibdi-da o'rmon yuliga chiqibdi, ashula aytib yumalab-yumalab ketaveribdi. Yo'lda quyonga duch kelibdi.

Quyon: " Bo'g'irsoq, bo'g'irsoq men seni yeman"- debdi.

Bo'g'irsoq: " Meni yema iltimos nimadesang bajaraman"

Quyon: Maylin lekin bitta shartim bor, shartimni bajara olsang ketishing mumkin.

- Qani R tovushini ochiq va yopiq bo'g'inlarda talaffuz qilgin-chi hamda R harfini yozib bergin debdi. Kel bo'g'irsoqqa yordam beramiz.

**RAAR**
**ROOR**
**RUUR**
**RIIR**

Bo'g'irsoq yo'lida davom etibdi. Yo'lda bo'rini uchratibdi.

**Bo‘ri**: “ Bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq men seni yeman”- debdi.
Bo‘g‘irsoq: “Meni yema iltimos nimadesang bajaraman”
**Bo‘ri**: Mayli, lekin bitta shartim bor, shartimni bajara olsang ketishing mumkin.

Piramida qismlariga, rangli kesma harflarning, piramidani rangiga moslab joylashtirish, hosil bo‘lgan so‘zni o‘qish. Bo‘ri so‘zini sharti belgilar bilan tahlil qilish.

| | |
|---|---|
|   | Bo‘ri |
| |  |

Bo‘g‘irsoq yo‘lda davom etibdi. Bo‘g‘irsoq juda charchabdi va bir oz dam olay deb dam olish daqiqasini o‘tkazibdi. Biz sen bilan **dam olish daqiqasini** o‘tazamiz.

Bor ekanda yo‘q ekan.
O‘rmonda quyonchalar
Bor ekanda yo‘q ekan
Quyonlar bir uychada

Yuvdilar quloqchalar
Yuvdilar qo‘lchalar
Yasandilar quyonchalar
Kiydilar boshoqchalar

Bo‘g‘irsoq yo‘lida davom etibdi. Yo‘lda ayiqni uchratibdi.
**Ayiq**: “ Bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq men seni yeman”- debdi.
Bo‘g‘irsoq: “ Meni yema iltimos nimadesang bajaraman”
**Ayiq**: Mayli lekin bitta shartim bor, shartimni bajara olsang ketishing mumkin.

Bizning o‘rmonda juda ko‘p hayvonlar bor, agar sen hayvonlarning ovozini eshitib ularning ovozini ajrata olsang, hayvonlarning nomini aytsang seni qo‘yib yuboraman – debdi. Bo‘ri, maymun, fil, sher.

Bo‘g‘irsoq yana yo‘lida davom etibdi. Yo‘lida ayyor tulkini uchratibdi.
Tulki: “ Bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq men seni yeman”- debdi.

Bo‘g‘irsoq: “ Meni yema iltimos nimadesang bajaraman”
Tulki: Mayli, lekin bitta shartim bor, shartimni bajara olsang ketishing mumkin.

Sen men bilan “Adashgan jonvorlar” o‘yinini o‘ynaysan debdi tulki.

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Hashoratlar** |  |  |  |
| **Parrandalar** |  |  |  |
| **Hayvonlar** |  |  |  |

Bu katakchadagi jonvorlar o‘z joylarini adashtirib qo‘yibdilar. Sen ularga joylarini to‘g‘ri topishga yordam ber. Jonvorlar kataklarga joylashtiriladi, jonvorlar nomlanib nomida R tovushi bor jonivorlar ajratiladi.

Barakalla, shunday qilib bo‘g‘irsoqni quyon, bo‘ri, ayiq, tulki ham yeya olishmabdi. Chunki sen bo‘g‘irsoqqa yordam bering.
Mashg‘ulotni yakunlash. Bolani rag‘batlantirish.

**Tovushlarni differensiatsiya qilish uchun tahminiy konspekt reja:**

**MAVZU: S va Z tovushini farqlash.**

**MAQSAD:** S va Z tovushlarining to‘g’ri talaffuzini mustahkamlash.

S-Z tovushlarni bo‘gin, so‘z, topishmoqlarda to‘g’ri farqlash, so‘zlarni fonetik tahlilini o‘tkazish. S-Z tovushlari qatnashgan so‘zlarning turli hil ma’nolarini ko‘rsatish. Tovushlarni tahlil qilish malakalarini mustahkamlash. S-Z harflarni yozishda to‘g’ri qo‘llash.Lug’at boyligini o‘stirsh.

**JIHOZLAR**: Predmetli rasmlar, qirqma harflari, bayroqcha, shartli belgilar.

**Mashg’ulot rejasui:**

I. **S-Z tovushlar artikulatsiyasini solishtirish.**

Bolaga S va Z tovushlarining artikulatsiyasini profelda va oyna orqali o‘z artikulatsiyasida talaffuz qilib ko‘rsatadi.

Z tovushini hamda S tovushini talaffuz etganimizda lablarimiz kulgi holatida bo‘ladi. Til uchi S tovushida ham Z tovushida ham pastki tishlar orqasida bo‘ladi (bu holatlarni ikkala tovushni(s, z) talaffuzida ko‘rsatib boriladi.)

S-Z tovushlarini navbatma-navbat talaffuz qilish buyuradi.

 

II. **S-Z tovushlarini talaffuzda, eshitishda va yozuvda farqlashga o‘rgatish.**

**a) Bir qator tovushlar talaffuz qililinadi:**

P, t, r, s, k, l, sh, **z**, m, n, l, z, o, p, l, g, k.

Bola diqqat bilan eshitadi agar S tovushini eshitsa qizil bayroqcha, Z tovushni eshitsa sariq bayroqchani ko‘taradi.

**b) bo‘g’inlar talaffuz qilinadi:**

pa, ba, **sa**, ta, da, la, na, zi, do, zi, **sa**, li, **zi**, lo.

Bunda ham Sa tovushi ishtirok etgan bo'g'inlarni eshitsalar qizil bayroqchani, Zi tovushni ishtirok etgan bo'g'inni eshisalar sariqm bayroqni ko'taradilar.

**III. "Juftini top" o'yini.**

S tovushini va Z tovushi ishtirok etgan bo'g'inlarni talaffuz etiladi, bola esa Z tovushini va bo'g'inlarni talaffuz etishi kerak.

| | |
|---|---|
| S | Z |
| Sa, as | Za, az |
| So , os | Zo, oz |
| Si , is | Zi, iz |
| Su , us | Zu , uz |
| So' o's | Zo' , o'z |

Bo'g'inlar analiz qilinadi va qirqma harflar yordamida yoziladi.

**V. Daftar bilan ishlash.** Bo'gin va so'zlarni daftarga yozish.

Os-oz, sira-zira
is-iz, qars-qarz

**VI. Jismoniy daqiqa**

"Barmoqlar" she`ri asosida mayda qo`l motorikasini rivojlantiruvchi mashqlar.

Atirgul edi g'uncha,
ochildi tong otkuncha.



**VII. Bolaga sujetli rasm ko'rsatiladi. Bola rasmga qarab gap tuzadilar va gapni analiz qiladila. Gap nechta so'zdan iborat ekanligini aytadi.** Shartli belgilar bilan belgilanadi.

**Zamira suvda suzyapti**



**VIII. Lo'gik tafaakkurni rivojlantirish.**

Topishmoqlar aytiladi:

Zuv-zuv borar,
Zuv-zuv kelar.
Doston o'qir,
G'alvir to'qir.

Mazazi qaymoq kabi,
Eridi saryog' kabi.
Yozda rosa yesangiz,
"Oh-oh maza", desangiz.



**IX. Fonematik eshitish qobilyatini rivojlantirish.**

- Men ikki qatorga "S"va "Z" harflarini qo'yaman va sizlarga rasmlar ko'rsataman. Rasmlarda ifodalangan predmetlarning nomida "S" tovushi eshitsangiz birinchi qatorga, agar "Z" tovushini eshitsangiz ikkinchi
- qatorga joylashtiring: sigir, zebra, tarvuz, soat, xo'roz, somsa.

| S | Z |
|---|---|
|  |  |

**X. Mashg'ulot yakunlash**. Bolani baholash rag'batlantirish.

**XI. Uy vazifa:** Tez aytishni yod olish.

**Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan (alalik) o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni taxminiy konspekt rejasi:**

**Mavzu: Mevalar.**

**Maqsad:** Mevalar nomi bilan tanishtirish. Muloqatga kirishishda yo'q so'zini imo-ishora orqali qo'llashga o'rgatish. Nutqni tushunishni rivojlantirish.

**Jihoz:** Quyoncha o'yinchog'i, mevalar olma, nok, limon. Mevalarning rasmlari.

**Mashg'ulotning borishi**

I. **Tahkiliy qism**. Salomlashish.

II. Bugungi mashg'ulotimizga quyoncha mehmonga keldi. U bizlarga sehirli qopida mevalar olib keldi.



Logoped quyoncha o'yinchogini ko'rsatadi va uning nomidan gapiradi.

- Salom ! Bola boshini qimirlatib quyoncha bilan ko'rishadi.

Bugun men bog'da bo'ldim va senga mevalar olib keldim.

Stol ustiga mevalar qo'yiladi.Olma, nok, limon.



Olmani ko'rsat. Nokni ko'rsat. Limonni ko'rsat.Olmani ol. Nokni ol. Olmani yegin. Nokni yegin. Ular shirin va mazzali. Bu mevalar.

III. **Dam olish daqiqasi: Barmoqlar mashqi**.

Bog'da olma pishipdi,
Qip-qizarib turibdi.
Silkitibdi shamollar,
Yerga to'p-to'p tushipdi.

O‘ng va chap qo‘l barmoqlari biroz bukilib, bir-biriga qaratib olmani ikki qo‘llab ushlagandek bo‘ladi. Barmoqlar qimirlatiladi.Barmoqlar yordamida shamol esayotgandek harakat qilinadi. Qo‘llar pastga qaratilib, barmoqlar buklab ochiladi.

**IV. O‘yin “Quyon ovqat tanlaydi”**

Logoped: Quyon ovqat yeyishni hohlayapti. U juda och. U olma yegisi kelyapti. Ma olma quyoncha. Ham-ham-ham

Quyoncha olma yeydi. Juda shirin olma ekan. Rahmat!

(Bola boshini egib) Rahmat, rahmat.

Logoped: Limon yeyishni hohlaysanmi?

Quyoncha: Yoq, limon nordon yemayman.

Bolagamevalarni eslab qolishi uchun quyonchani ovqatlantirish tavsiya qilinadi.

Logoped: Ali quyoncha nok yegisi kelyapti, unga juda yoqti.

Ali quyonchaga nok beramizmi? Ali quyoncha nokni yeb qo‘ydi.

Logoped: Ali, quyonchaga limon berib ko‘rgin. Ali quyoncha yana limon yemayapti. U yegisi kelmayapti. Limon nordon. Quyoncha nimani yaxshi ko‘radi? Bola ko‘rsatadi.

**V. Nafas mashqlari, tovush va harakatlar bilan.**

Ertalab turdi quyosh
“a-a-a” (sekin-baland)
Tulkivoyni uyg’otdi
“o-o-o” (mayin)
Bo‘ri yug’ondi.
u-u-u (jahli chiqqan)
ot oyoqlarida turib
i-i-i (ingichka)
sakrab quyoncha
(e-e-e) ajablanib



**VI. Qo‘l harakati bilan bajariladigan mashqlar.**

Qo‘llar yonga,
Qo‘llar yonga mushtumcha
Birlashtirib qo‘lchalarni siqamiz

Gavdalarni tik tutamiz.

**VII. O'yin " Katta va kichkina"**
Bizning quyonchamizni o'rtog'i bor . U katta quyon. Quyon mevalarni juda yaxshi ko'radi. Quyon olmani yaxshi ko'radi. Quyoncha olmachani yaxshi koradi. Quyon apelsinni yaxshi ko'radi. Quyoncha apelsinchani yaxshi koradi.
Bola olma, apelsin rasmlarini quyon va quyonchaga sovg'a qiladi.

| | | | |
|---|---|---|---|
|  |  |  |  |
| **Olmacha** | **Quyoncha** | **Olma** | **Quyon** |

VIII. **"Olma" haqidagi she'rni eshiting.**
Mana olma, olmalar
Shirinliklarga to'la
Olmalarni terib olig,
Mazasidan baxra oling.
Shamol shoxlarni tebratar.
Olmalarni terish qiyinlashar
Sakra qo'lingni uzat
Uzib ol olmalarni
Mana olma, olmalar.

IX. **Rag'batlantirish. Uyga vazifa topshirish**
- Sen bugun mashg`ulotda juda yaxshi qatnashding. Barakalla, rahmat.Hayr!

**Imkoniyati cheklangan bolalarda yozma nutqning buzilishlari**

M.Ye.Xvatsev, D.I.Orlova va V.V.Voronkovalarning ma'lumotlariga ko'ra, aqlan normal rivojlangan bolalarga nisbatan imkoniyati

cheklangan (aqli zaif) o'quvchilarda yozuvning buzilishi ko'proq qaydqilinadi.
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda disgrafiyaning (grafikaning buzilishi) simptomatikasi, yozuvdagi turli xatolar soning ko'pligi bilan xarakterlanadi (V.V.Voronkova D.I.Orlova va boshqalar)
Ular bolarda disgrafiya, keng tarqalgan orfografik xatolar bilan birgalikda kuzatiladi. Bu til qonunyatlarini yuqori darajada o'zlashtirish, ko'plab qoidalardan foydalanish zaruryatini talab etadi.

Nutq rivojlanishdagi buzilishlar, bir tomondan, yozma nutqni egallashdagi qiyinchiliklar bilan, boshqa tomondan, orfografik qoidalaridan foydalanishdagi qiyinchiliklar bilan birga kuzatiladi.
Imkoniyati cheklangan(aqli zaif) o'quvchilardan disgrafiya ko'proq murakkab ko'rinishida kuzatiladi.

Imkoniyati cheklangan (aqli zaif) bolalardan disgrafiya simptomatikasining keng tarqalganligi va o'ziga xosligi, idrok qilish faoliyatining rivojlanmaganligi, og'zaki nutqning buzilishi, til umumlashmalarning shakllanmaganligi, nutq eshtirish, ko'rish analizatorlari faoliyatining buzilishlari ham o'z aksining topdi.

Imkoniyati cheklangan (aqli zaif) bolalar analitik-sintetik faoliyatini buzilishi so'zning morfologik strukturasini, tovush va gap strukturasini analiz qilishda ham namoyon bo'ladi. So'zning tovush-bog'in strukturasi haqida noaniq tasavvurlar ko'plab harflar tushub qolishiga, o'rnining almashuviga olib keladi.So'zning morfologik strukturasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaslik ko'plab agramatizmlar,sufiks va qo'shimchalar, ayniqsa, mustaqil yozuvda xatolarga yo'l qo'yishga zamin yaratadi.Gap strukturasi analizining buzilishi, so'zlarning tushirib qoldirishda, qo'shib yozib yuborishda ko'rinadi. Ko'plab xatolarga yo'l qo'yilishi shu aqli zaif bolalarning nutq tovushlari talaffuzidagi nuqsonlari bilan bog'liq

## Yordamchi maktabda yozma nutqning buzilishlarini to'g'irlash bo'yicha logopedik ishlarning o'ziga xos tomonlari

Imkoniyati cheklangan(aqli zaif) o'quvchilarda yozma nutqdagi buzilishlarini bartaraf etishda oliy nerv faoliyatining o'ziga xos tomonlarini, Imkoniyati cheklangan bolalarni psixopatologik o'ziga xosliklarini ham hisobga olish zarur.

Shu munosabat bilan yordamchi maktabda o'qish va yozuv buzilishlarini korreksiyalash (to'g'irlash), idrok qilish faoliyatining, qiyoslashning, analiz va sintezning rivojlanishi bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Masalan, fonetik jihatdan yaqin bo'lgan tovushlarni qiyoslashdan keng foydalaniladi (akustik, artikulator-akustik, disgrafiya, fonematik disleksiya), shuningdek, gap qurilishning analizi, so'zning tovush bo'g'in strukturasining analizi va ko'rish analizi -sintezidan ham keng foyladalaniladi.
Maxsus maktabda yozma nutq buzilishlarini bartaraf qilishda turli psixik funksiyalarini, eng kichik shakllaridan boshlab, rivojlantirilish zarurati tug'iladi. Hususan, fonematik analizi va sintezning rivojlantirilishi unli tovushni boshqalari doirasida ajratib ko'rsatishdan boshlanadi.O'qish va yozuvdagi buzilishlarni bartaraf qilish,og'zaki nutq buzulishlarini sistema sifatida to'g'irlash bilan uzviy bog'liq ravishda o'tkazildi.

Imkoniyati cheklangan (aqli zaif) o'quvchilarning o'qishdagi buzilishlari 1-sinfdayoq, ya'ni yozuv jarayoning 2-sinfdagi buzilishlaridan oldin namoyon boladi. Buni imkoniyati cheklangan bolalarda o'qish jarayoniga qaraganda kechroq o'zlashtiriladigan yozuv jarayonining murakkabligi bilan tushuntirish mumkin.Shu sababli yordamchi maktabda logopedik ishni o'qishdagi buzilishlarni to'g'irlashda boshlash lozim.Bir vaqtning o'zida disgrafiya profilaktikasini amalga oshirib borish zarur, chunki, disgrafiya bilan dileksiya mexanizmi ko'p tomondan bir-biriga o'xshash.

Shunday qilib, yordamchi maktabda logopedik ishlar ko'plab o'ziga xosliklar bilan xarakterlanadi, bular oliy nerv faoliyati, imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik o'ziga xos tomonlari, shuningdek, bu bolalarda nuqsonlar strukturasi, mexanizmlar, simptomatikalaridan kelib chiqaradi.

## Yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etishda olib boriladigan logopedik ishlar metodikasi

O'qish va yozuv buzilishlarining mexanizmi ko'p jihatdan bir-biriga o'xshashdir, shuning uchun ularni bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan logopedik–tuzatish ishlari metodikasi ham o'xshash bo'ladi.

Fonematik disleksiya, artikulator-akustik disgrafiya va fonemalarning buzilishi asosidagi disgrafiyani bartaraf etishda fonematik idrokni (tovushlar differensiatsiyasini) rivojlantirish.

Tovushlar differensiatsiyasini aniqlash va mustahkamlash bo'yicha olib boriladigan logopedik ishlar turli analizatorlarga (nutq eshitish,nutq harakat va koruv) tayangan holda olib boriladi.

Tovushlarning bir-biridan farqlash ustida olib boriladigan ishning muvaffaqiyatli bo'lishi fonematik analiz va sintezni rivojlantirish bilan chambarchars bog'liqdir.

Almashtiriladigan tovushlarni bir-biridan farqlash ustida olib boriladigan logopedik ishlar 2 bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich-tayyorgarlik (almashtirilayotgan har bir tovush ustida ishlash).

Ikkinchi bosqich-almashtirilayotgan tovushlarni eshitish va talaffuz jihatdan farqlash.

Birinchi davrda almashtirilayotgan har bir tovoshning talaffuz va eshitish obrazining ketma-ketligi aniqlanadi.Olib boriladigan ish rejalari quyidagilardan iborat:ko'rish, eshitish, taktil idrok etish, kinestetik sezish orqali tovushlarni jarangdorligi va artikulatsiyasini aniqlash bo'g'inlarda tovushlarni ajratish:so'zlarda tovushlarning o'rnini (boshida-o'rtasida-oxirida) aniqlash; tovushlarni so'zdagi ketma-ketligini aniqlash (tovush sanoq bo'yicha nechanchi o'rinda, qaysi tovushdan keyin kelyapti, o'zidan oldin qaysi tovush turibdi); gap, matnlarda tovush o'rnini aniqlash.

